

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**IX RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

OKTYABR, 2025



ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, oktyabr

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 9-son (oktyabr, 2025-yil). – 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 23-oktyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda “Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar” mavzusidagi IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

KIMYO FANLARI

<i>Narmanova Feruza, Ibragimov Aziz, Turayev Xayit, Toirova Gulshoda</i> Zn(II) NING 4-AMINOBENZOY KISLOTASI BILAN $\{[Zn(H_2O)_2(SO_4)_2](C_7H_7NO_2)_2\}_n$ KOMPLEKS BIRIKMASI SINTEZI	5-9
--	-----

TEXNIKA FANLARI

<i>Kuziboev Shuxnazar</i> РАЗРАБОТКА КОМПОЗИЦИОННЫХ СОРБЕНТОВ НА ОСНОВЕ ЖЕЛЕЗОСОДЕРЖАЩИХ ОТХОДОВ ДЛЯ ОЧИСТКИ СТОЧНЫХ ВОД ОТ НЕФТЕПРОДУКТОВ	10-16
<i>Mirjalolova Nargiza</i> MULTIMEDIALI ALOQA TARMOQLARIDA HUYUMLARNI ANIQLASHNING ILG'OR TEKNOLOGIYALARI	17-23

TARIX FANLARI

<i>Jo'raboyev Ulug'bek</i> TURKISTON ASSRDA SUD TIZIMI FAOLIYATI	24-26
---	-------

IQTISODIYOT FANLARI

<i>Sуюнова Саодат</i> РОЛЬ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ В РАЗВИТИИ ЭКОТУРИЗМА	27-32
<i>Ashurova Sitora</i> ENHANCING INFLATION FORECASTING THROUGH HYBRID ECONOMETRIC AND MACHINE LEARNING APPROACHES IN EMERGING MARKETS	33-36

FALSAFA FANLARI

<i>Xoshimov Hakimjon</i> O'ZBEK JAMIYATIDA YOSHLARNING IQTISODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY MEKANIZMLARI	37-42
---	-------

FILOLOGIYA FANLARI

<i>Norbekova Gulrux</i> INGLIZ TILIDA AFSUNGA OID BIRLIKLARNING KONSEPTUAL ASOSLARI	43-46
<i>Abdurahmonova Nilufar</i> LEKSIKOGRAFIYADA TERMINOLOGIK LUG'ATLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	47-49

YURIDIK FANLAR

<i>Каюмова Малика</i> ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРЕСТУПНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ: ВЫЗОВЫ ДЛЯ УГОЛОВНОГО ПРАВА	50-53
--	-------

PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Abdullayeva Ziroatxon</i> ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH JARAYONIDA TALABALARDA REFLEKTIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI VA PEDAGOGIK IMKONIYATLARINI ANIQLASH	54-56
<i>Shermatova Saxobaxon</i> KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA OLIY TA'LIMDA INDUKTIV VA DEDUKTIV FIKRLASH JARAYONLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY KONSEPSIYASINI ASOSLASH	57-59

Baratova Yulduz

TARBIYACHILARDA KOMMUNIKATIV SALOHİYATNI SHAKLLANTIRISHNING METODIK
ASOSLARI 60-65

TIBBIYOT FANLARI

Fayziyeva Nozima

YOSHLARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING TIBBIY-PEDAGOGIK
ASOSLARI 66-70

TARIX FANLARI

TURKISTON ASSRDA SUD TIZIMI FAOLIYATI

Jo'raboyev Ulug'bek Olimovich

“Magnavr” o'quv markazi rahbari

Email: xadichabegim3031@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turkistonda tashkil etilgan sud tizimi va uning faoliyati haqida ma'lumotlar berilgan. Mustamlaka ma'muriyatining muhim huquqiy bo'ginini sud idoralari tashkil etib, mazkur davrda Turkistonda ikki xil sudlar: imperiya sudlari hamda xalq sudlari deb atalgan an'anaviy qozi va biy sudlari faoliyat yuritganligi tushuntirib berilgan. Bundan tashqari imperiya sudlari, qozilik sudlari va sudyalarning tayyorlash maslalariga ham to'xtalib o'tilgan.

Keywords: sud, general-gubernator, kanselyariya, adliya, sud palatasi, mahalliy sudlar.

ACTIVITY OF THE JUDICIAL SYSTEM IN THE TURKISTAN ASSR

Juraboyev Ulugbek Olimovich

Head of the “Magnavr” Training Center

Email: xadichabegim3031@gmail.com

Annotatsiya. This article provides information about the judicial system established in Turkestan and its activities. An important legal link of the colonial administration was formed by judicial bodies, and it is explained that during this period two types of courts operated in Turkestan: imperial courts and traditional qazi and biy courts, which were called people's courts. In addition, the issues of imperial courts, qazi courts and the training of judges are also touched upon.

Key words: court, governor-general, chancellery, justice, court chamber, local courts.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2025v1i9/n04>

Sovet sudlari tarixini tadqiq etishdan avval o'lkada 1918-yilgacha sud tizimining ahvoli qanday bo'lganligini aniqlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu yo'nalishdagi jarayonlar evolyutsiyasi va transformatsiyasini aniqlash imkonini beradi. 1867-yilda O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan xududlarida Turkiston general-gubernatorligi tashkil topdi. Rossiya imperatori Turkistonda markazlashgan kuchli xarbiy hokimiyatni qaror toptirish uchun general-gubernatorga cheklanmagan vakolatlar bergan edi. Xususan, general-gubernator qo'lida xarbiy, fuqarolik va sudlov hokimiyati birlashgan edi[1;B.20]. U ayni paytda imperatorning noibi, xarbiy okrug qo'mondoni, politsiya hizmati boshligi, bosh prokuror kabi vazifalarni bajargan. Viloyat, uezd ma'murlari ham o'zlari boshqargan xududlarda shunday vakolatlarga ega edilar.

Mustamlaka ma'muriyatining muhim huquqiy bo'ginini sud idoralari tashkil etardi. Bu davrda Turkistonda ikki xil sudlar: imperiya sudlari hamda xalq sudlari deb atalgan an'anaviy qozi va biy sudlari faoliyat yuritgan.

1867-yil «Turkiston general-gubernatorligi viloyatlarini boshqarish haqidagi aktli Nizom loyihasi» ga muvofiq imperiya sudlari, uezd sudlari, viloyat boshqaruvi sudlovi, general-

gubernator kanselyariyasining sudlov bo'limi hamda xarbiy sudlarga bo'linishi ko'rsatib o'tilgan edi[2;B.207-208.].

Uezd sudlari ham ahamiyatli jinoiy ishlar hamda ikki ming rublgacha bo'lgan fuqarolik da'volarni ko'rgan. Viloyat boshqaruvining sudlov bo'limi uezd sudlari vakolatiga kirmaydigan ishlarni hamda ular ustidan tushgan kassatsiya shikoyatlarni ko'rgan. General-gubernator kanselyariyasining sudlov bo'limi o'lkadagi barcha sud idoralarini nazorat qilgan. Imperator taftishchisi Girsning qayd etishicha: «Kanselyariya xatto, Adliya vazirligi o'z tasarrufidagi sudlarga nisbatan ega bo'lmagan huquqdardan foydalangan»[3;B 75.].

Bundan tashqari, viloyat markazlarida xarbiy sudlar tuzilgan bo'lib, ular xarbiy jinoyat qonunchiligiga asosan ish yuritgan va hokimiyatga qarshilik, mansabdor shaxslarga suiqasd, pochta-telegrafga hujum kabi jinoyatlarni ko'rgan hamda jazo qo'llashda boshqa sudlarga nisbatan shafqatsizligi bilan ajralib turgan.

1886 yil qabul qilingan «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom» loyihasiga ko'ra sud tizimiga o'zgarishlar kiritildi[4;C 65.]. Jumladan, uezd sudlari tugatilib, uning o'rniga mirovoy (murosa) sudlar tashkil topdi. Rossiyaning markaziy guberniyalarida mirovoy sudyalar saylansa, Turkistonda esa tayinlangan. Rus amaldorlari «mahalliy xalq madaniyati past ekanligi»ni ta'kidlab, mirovoy sudyalar imperator farmoni bilan tayinlanar edi. Imperator hukumati o'lkada hatto, uezd miqyosidagi eng quyi sudyalarni tayinlashni ham qat'iy nazoratga olgan edi.

Nizomga muvofiq viloyat boshqaruvining sudlov bo'limlari tugatilib, viloyat sudlari tashkil etildi. Viloyat sudi mirovoy sudyalarning hukm va qarorlarini kassatsiya tartibida ko'rishdan tashqari alohida ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida ko'rgan.

1898 yilda «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom» loyixasiga ba'zi o'zgarishlar kiritildi. Jumladan, viloyat sudlari okrug sudlari deb ataladigan bo'ldi. Ushbu sudlar ustidan tushgan kassatsiya shikoyatlari hamda o'lka miqyosidagi og'ir siyosiy jinoyatlarni ko'rish uchun Toshkent sud palatasi tashkil etildi. Toshkent sud palatasi Rossiya imperiyasidagi 14 ta sud palatasidan biri edi. Umuman olganda, o'lka sud tizimi imperiyaning mustamlakachilik manfaatlarini ta'minlashda muhim vosita bo'lib hizmat qilar edi. Ayniqsa, Toshkent sud palatasi hamda xarbiy sudlar milliy ozodlik harakatiga qarshi qaratilgan kuchli qurollardan biri edi. Ular har qanday norozilikni tomiri bilan qo'porib tashlash va shafqatsizlik bilan bostirishga yo'naltirilgan edi.

Imperiya sudlaridan tashqari Turkistonda an'anaviy qozi va biy sudlari ham mavjud edi. 1865- yil 6- avgustda imperator Aleksandr II imzo chekkan «Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi muvaqqat nizom»ga asosan Qozi kalon lavozimi bekor qilindi va barcha qozilarning vakolati tenglashtirildi. Ular vakolatidan tan va o'lim jazosini qo'llash olib tashlandi. 1867 -va 1886- yilgi nizomlarga asosan qozi va biy sudlari «xalq sudlari» deb ataladigan, aholi tomonidan uch yil muddatga saylanadigan hamda faqat o'zlariga tegishli xududdagi fuqarolarning arzini ko'radigan bo'ldi[5; C 673-677.]. Ushbu sudlarning hukm va qarorlarini kassatsiya tartibida ko'rish uchun ikkita yuqori instansiya sudlari, ya'ni qozi va biy sudlarining qurultoyi hamda favqulodda qurultoy tashkil etildi.

Imperiya sudlariga muqobil ravishda qozi va biy sudlari mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilardi. Imperiya sudlarining rus tilida ish yuritishi hamda yuridik jihatdan tushunarsiz va xalq an'analaridan yiroqdagi ham mahalliy aholining qozi va biy sudlariga murojaat qilishiga sabab bo'lgan.

Bunday munosabat mustamlaka ma'muriyati manfaatlariga zid edi. Natijada, imperiya hukumati mahalliy aholi hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan qozi va biy sudlarini tugatishga qaror qildi. Buning uchun eng avvalo, qozi va biy sudlari saylovi ustidan nazorat o'rnatildi. Shariat qoidalarini mukammal bilgan, xalq manfaatlarini himoya qiladigan shaxslar ushbu lavozimga saylanishiga yo'l qo'yilmadi. Bundan tashqari, sud ishlariga imperiya amaldorlarining tez-tez aralashuvi hamda bosim o'tkazishi qozi va biylarning omma orasida obro'sizlanishiga sabab bo'lgan. Shu asosda qozi va biy sudlarining vakolati cheklab borilishi va butunlay tugatilishi lozim edi. Biroq 1918- yilgi siyosiy o'zgarishlar Rossiya imperiyasining ushbu rejalari amalga oshishiga imkon bermadi. Qozi va biy sudlari sovet davrida ham ma'lum muddat faoliyat yuritdi.

Xullas, sovet hokimiyati o'rnatilishidan avval Turkistonda amal qilgan sud tizimi ikki bo'g'indan iborat edi. Mahalliy sudlar an'anaviy tartiblarni saqlab qolgan bo'lsa-da, vakolatlari cheklanib, hukumat nazoratiga olingan edi. Imperiya sudlari esa o'lkadagi sud ishlarining eng muhim yo'nalishlarini qamrab olgan edi. Rossiya imperiyasida, jumladan, mustamlaka boshqaruvi o'rnatilgan Turkiston general-gubernatorligida amalda sudyalarning vakolatlari cheklangan va imperiya manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan edi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шохидлиги ва сабоклари / Илмий мухддрир Д. Алимова. - Тошкент: Шарк, 2000. - Б.20.
2. Туркстон чор Россияси мустамлакачилиги даврида / Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1- китоб. - Тошкент: Шарк, 2000. - Б. 207-208.
3. Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркстонда чор мустамлака тизими. -Тошкент: Академия, 2002. - Б.75.
4. Положение об управлении Туркестанским краем... - С. 673-677.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, oktyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 9-son (oktyabr, 2025-yil). – 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 23-oktyabr

Barcha huqular himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.